GLOBALLASHUV VA UNING ISHTIROKIDA YUZAGA KELAYOTGAN IKKITOMONLAMA TA'SIRLAR

Guliston davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Ko'liyeva Dildora Ixtiyor qizi
e-mail: dildorakuliyeva4@gmail.com, +998930354214
Guliston davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi
Kummetova Kuldasta Eynulla gizi
e-mail: kguldasta93@gmail.com

GLOBALIZATION AND COMING DOUBLE EFFECTS INTO EXISTANCE BY ITS ATTENDANCE

Guliston davlat pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi talabasi
Ko'liyeva Dildora Ixtiyor qizi
e-mail: dildorakuliyeva4@gmail.com, +998930354214
Guliston davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi
Kummetova Kuldasta Eynulla gizi
e-mail: kguldasta93@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dunyo bo'ylab taraqqiy topgan, o'z o'rniga ega bo'lgan jarayon-globallashuv haqida mulohaza yuritilgan. Globallashuv qanday imkoniyatlarga va kamchiliklarga sabab bo'lishi, ya'ni uning ijobiy va salbiy jihatlari atroflicha yoritilgan. Shu bilan birgalikda, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy natijalari haqida ham ilmiy tadqiqotlar va nazariy natijalar mavjud.*

Kalit so'zlar: *globallashuv, madaniy almashinuv, iqtisodiy o'sish va rivojlanish, ish imkoniyatlari, madaniy tarqoqlik, raqobat hissi.*

Annotation. *This article centres about globalization which is developed, have its own place. What opportunities and shortcomings of globalization is causing, which its pros and cons. What is more, there are scientific researches and theories regarding its social, economic then political consequances.*

Keywords*: Globalization, cultural exchange, the raise and progress of economy, job opportunities, cultural dispertion, the sense of competition.*

Globallashuv – butun jahon bo‘ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya, ya’ni birlashish jarayoni hisoblanadi. Hozirgi kunda bu tarmoqlar kundan kunga rivojlanib, davlatlararo hamkorlik munosabatlari yo‘lga qo‘yilmoda. Globallashuv nafaqat insonlarning hayot tarzini yengillashtirishga xizmat qiladi, balki bir qancha qiyinchiliklarni ham tug‘dirishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Globallashuv ta’sirlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

-iqtisodiy;
-siyosiy;
-madaniy;
-mafkuraviy;
-ijtimoiy-demografiya;
-migratsiya;
-ilmiy-texnika;
-badiiy-estetika.

Taniqli sotsiolog E.Giddens – “Globallashuv bir biridan ko‘p uzoqlarda ro‘y beradigan mahalliy voqea-hodisalarning butun jahon sotsial munosabatlarga intensifikatsiyalashuvidir”, – deb baholaydi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish globallashgan dunyo hayotida ishtirok etish, erkin savdo-sotiq qilish, xalqaro aloqalarda oz manfaatlari va qiziqishlarini himoya qilish, kreditlar olish, investitsiyalar jalb etish, yangi infratuzilmalar tuzish kabilarga imkon beradi. Xususiy mulkning qo‘llab-quvvatlanishini tadbirkorlik va ishbilarmonlikning rivojlanishiga, bu esa, o‘z navbatida, aholi bandligini ta’minlash, turmush darajasini yuksalishiga olib keladi. Mehnat bozoridagi raqobat turli xil iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Misol uchun, turli davlatlarning mahsulotlari o‘rtasidagi tafovutlar, yangilanishlar bozor iqtisodiyotida yangi iqtisodiy jihatdan yangiliklar yaratish imkonini beradi. Buning yorqin misoli, texnologik qurilmalar, raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va boshqalar. Natijada bozor iqtisodiyotiga kirish, biznes muhitini yangilash va davlatlar o‘rtasida hamkorlik munosabatlarini yaqinlashtiruvchi vaziyat yuzaga keladi. Davlatlararo hamkorliklar natijasida turli diplomatik aloqalar o‘rnatiladi, investitsiyalar kiritiladi, iqtisodiyotning o‘sish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada takomillashadi. Ko‘plab ishlab chiqarish sanoatlari kengayadi. Savdo tarmoqlarining kengayishi davlatning rivojlanishiga hissa qo‘shibgina qolmay, atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Misol uchun, fabrika va korxonalardan chiqayotgan zararli gazlarni, chiqindilarni namuna sifatida ko‘rsatish mumkin. Bu esa havoning ifloslanishi, tabiiy resurslardan haddan ortiq foydalanish va chiqindilarning ko‘payishiga olib keladi. Natijada biz nafas olayotgan havo orqali sog‘ligimizga zarar yetadi.[4, 52]

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi migrantlarni o‘z davlatiga ishlash uchun jalb qiladi, ya’ni arzon va tayyor ishchi kuchini qo‘lga

kiritish maqsadida ushbu faoliyatni amalga oshiradi. Bu esa mahalliy aholi o‘rtasida raqobatni kuchaytiradi. Ba’zan mahalliy ishsizlikka sabab bo‘ladi. Ishchi kuchi, asosan, ikki xil usulda bo‘linadi. Birinchisi – arzon va maqsadli ravishda amalga oshiriladigan faoliyat hisoblanadi.Asosan, rivojlanayotgan mamlakatlar (Afrika, Osiyo mintaqalari)da kuzatiladigan holatlardan biri hisoblanadi. Ya’ni ishchilardan ularning ilmiy maqomlari, yutuqlari talab etilmaydi. Ularga ko‘pincha og‘ir mehnat uchun arzon va yaroqli ishchilar kerak bo‘ladi. Ikkinchi yo‘l esa ishchilarning malaka va ko‘nikmalariga bog‘liq bo‘lgan usul. Ishchilarda malakasini oshirish va yuqori ish haqi olish imkoni mavjud bo‘ladi. Bu holat ko‘pincha rivojlangan mamlakatlarda ustunlik qiladi. Natijada ijtimoiy tengsizlik ko‘rsatkichi oshadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ishchi kuchining og‘ir mehnatga moyilligi, rivojlangan mamlkatlarda esa malakali mutaxasislarga ehtiyoj kuchli bo‘ladi. Globallashuv va texnologik inqiloblar ishlovchi kuchning yangi talablarini va imkoniyatlarini yaratadi. Masalan, sun’iy intellekt, avtomatizatsiya va raqamli transformatsiya ishchi kuchidan yangi malakalar va qobiliyatlarni talab qiladi. Shu bilan birgalikda, bu jarayonlar ba’zi ish o‘rinlarining yo‘qolishiga yoki yangi sohalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Natijada ishchi kuchining moslashuvchanligini va qayta tayyorlanish zaruratini kuchaytiradi. [1, 53]

Ilm-fan sohasidagi intellektual izlanishlar va tadqiqotlar soat sayin rivojlanib bormoqda. Bir tomondan, insonlarning kreativlik salohiyati, intellektual mahorati, kuchi oshmoqda. Boshqa bir tomondan, shu intellektual kuch yadro qurollari orqali sayyoraga, kelajak fojialariga sabab bo‘luvchi fenomen sifatida xavf solmoqda. Misol tariqasida, Amerika Qo‘shma shtatlarining 1945-yil avgust oyida Yaponiyaning Hiroshima va Nagasaki shaharlariga yuborgan yadro qurollari va buning natijasida minglab begunoh insonlarning halok bo‘lganligi yorqin misoli bo‘la oladi.

Anthony Giddensning ta’kidlashicha, globallashuv “yuqori xavfli jamiyat”ga olib kelishini, ya’ni insonlar har doim o‘ziga yangi xavf-xatarlarni yuzaga keltiradigan texnologiyalar, siyosiy vaziyatlar va tabiiy resurslarning kamayishiga katta miqdorda ta’sir ko‘rsatishini aytib o‘tadi. Shu bilan birgalikda, globallashuvni nafaqat ijobiy rivojlanish, balki yangi global muammolar va xavf-xatarlar bilan ham bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Globallashuv natijasida turli xil xalqlar bir-birlari bilan madaniy almashinuv jarayonini amalga oshiradi. Shuning uchun taniqli tadqiqotchilar P.Berger va R.Xantington “Turfa globalizatsiya” degan tushunchani fanga kiritishgan. Shu bilan birgalikda ular yozadiki: “Omadli sharqiy Yevropalik biznesmen kengash zalida o‘zini amerikalik hamkasb sifatida tutishi, ammo uyiga kelgach, mahalliy an’analarga muvofiq, xotinini urishi, bolalarini e’tibordan qoldirishi mumkin”. Har qanday o‘zgarish milliy zaminga, tajribaga tayanganida ijobiy natijalarga olib keladi. Globalllashuv to‘lqinlari qanchalik kuchli bo‘lmasin milliy-madaniy an’analarning,

millit iqtisodiyotning o‘z xususiyatlarini asrab qolishga ishtiyoqi ham shuncha kuchli bo‘ladi. Ular o‘zlarining bilim-ko‘nikmalari, tajriba, san’at, an’ana va qadriyatlarini ulashadi va turli xalqlarning ushbu jihatlarini o‘rganishadi. Bu esa jamiyatda millatlarning bir-birlarini tushunishini kuchaytiradi va oradagi stereotiplarni yo‘qotishga yordam beradi. Boshqa bir tarafdan, mahalliy tarqoqlikkka olib keladi. Bu nima degani? O‘zga xalqlar bilan birgalikda ishlash, istiqomat qilish va faoliyat yuritish mahalliy qadriyatlarni asta sekinlik bilan yemirilishiga olib keladi. Ya’ni, agar siz kim bilan ko‘p vaqt o‘tkazsangiz, siz ham shu inson kabi bo‘la boshlaysiz. Uning yashash tarzi, xatti-harakatari va jamiyatga bo‘lgan umumiy qarashlari bevosita sizga ta’sir qilmasdan qolmaydi. Fikrlari va fe’l-atvorlari bevosita sizga ta’sir ko‘rsatadi. Bir vaqtning o‘zida, madaniy almashinuv ham ijobiy tomondan, ham salbiy tomondan ta’sir o‘tkazish hususiyatiga ega. [2, 106]

Globallashuv internet tarmoqlari orqali milliy madaniyatlarga tahdid o‘tkazayotganini G‘arb tadqiqotchilari tashvish bilan qayd etishadi. Masalan, taniqli sotsiolog P.L.Bergerning keltirishicha, 1970-yili Chili aholisining 10,3% oilasida televizor bo‘lgan, bu ko‘rsatkich hozir 90,4%ni tashkil etadi. Ammo TVda ko‘rsatiladigan dasturlarning asosiy qismi AQSH axborot agentligidan sotib olingan. Globallashuvdagi yana bir salbiy jihatlar, ayniqsa, pornografiya, zo‘ravonlik, pulga ochlik, destruktiv kuchlarning undan foydalanayotgani nafaqat bizni, xuddi shuningdek, barcha insonparvar va taraqqiyparvar kishilarni tashvishga solishi aniq. Kishilik jamiyati, u yaratgan sivilizatsiya, axloq, madaniyat va qadriytlarga xavf tug‘dirmoqda. Sharq falsafasiga ko‘ra, kishining bir yelkasida shayton (buzg‘inchi kuch) bo‘ladi. Ushbu destruktiv kuch globallashuvni o‘zining badniyatlari tomon burib yuborishi mumkin. Shunday ekan, ijobiy globallashuvni qo‘llab-quvvatlovchi kuchlar, ayniqsa, jaholatga qarshi ma’rifatni qo‘llovchi aql egalari birlashtirishga moyil hisoblanadi. Boshqa bir tarafdan, globallashuv dunyo bo‘ylab axborot va texnologiya almashinuvi, ilmiy va ta’limiy resurslardan foydalanish imkonini yaratadi. Dunyo bo‘ylab talabalar va ilmiy xodimlar turli mamlakatlarida o‘qish va malakalarini oshirishlari mumkin. Bu esa yangi kashfiyotlar va innovatsiyalarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, 30 minutdan keyin olingan axborotning 60%i, kun oxiriga kelib 40%i, hafta oxiriga kelib 10%i yodda qoladi. Axborotning bunday tez eskirishi, unutilishi kishini yangi manbalar izlashga undaydi. Agar uning bu ma’naviy-ruhiy ehtiyoji qonmasa, u noto‘g‘ri yoki ko‘cha axborotlaridan foydalanadi. Shuning uchun ham ma’naviy tahdidlar “ko‘cha” axboroti tez tarqalish xususiyatiga ega. Ilm-fan yutuqlari insonni og‘ir qo‘l mehnatidan xalos qilib, ko‘proq samarali va daromadli mehnat bilan shug‘ullanishiga imkon beradi. Hozirgi kunda o‘qish maqsadida eng ko‘p tashrif buyurilayotgan davlatlar- Amerika Qo‘shma shtatlari, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shveytsariya va Singapur davlatlarini misol keltirishimiz mumkin. Chunki shu davlatlardagi nufuzli universitetlar butun

dunyoga mashhur va talab darajasidagi oliygohlar hisoblanadi. Bundan tashqari, globallashuv natijasida butun dunyo bo‘ylab rivojlanish, takomillashtirish sa’y harakatlari, integratsiya jarayonlari yuz berayotganligi hamda demokratik jarayonlar sababli insoniyatning hayot tarzi ham yaxshilanib bormoqda. Shuning uchun, bu jarayon insonlarning turmush tarzini yaxshilaydigan va kambag‘allikni pasayishiga olib keladigan omil sifatida qaraladi. [5, 90]

Globallashuvning yana bir tarmog‘i bu – ta’minot zanjiri hisoblanadi.Ya’ni bunda eksport va import kabi iqtisodiy jarayonlar asosiy vazifani bajaradi. Bir mamlakatda ishlab chiqarilgan mahulotlar boshqa mamlakatlarda iste’mol qilinadi. Mahsulotlarni yetkazish berish, ularni qabul qilish va baho berish jarayonlari birmuncha murakkab bo‘lgan jarayon. Chunki ko‘plab kompaniyalar va fabrikalar bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun tanlov imkoni ham shunga mos bo‘ladi. Ishlab chiqarish jarayonidagi raqobat, asosan, narx, sifat va xizmat ko‘rsatish kabi sohalarda keng qamrovga ega. Ularning maqsadi – iste’molchilarga sifatli mahsulotlarni taqdim etish va samarali xizmat ko‘rsatish. Qo‘shimcha qilib aytganda, bozor iqtisodiyotga kirish, o‘z o‘rnini egallab, maksimal darajada foyda olish ko‘zda tutiladi. Doimo ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat keskin tus oladi. Ular ishlab chiqarayotgan mahsulotlarning sifati, dizayni va tarkibiga katta ahamiyat qaratishadi. Chunki iste’molchilar doimo sifatli mahsulotlarni xarid qilishga harakat qiladi. [3, 167]

Globallashuvning iqtisodiy jihatlari natijasida intensiv sanoat ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va urbanizatsiya tabiiy muhitlarni yo‘q qilmoqda. Bu esa o‘z navbatida hayvonlar va o‘simliklar turlarining kamayishiga olib keladi. Global iqtisodiyotning kengayishi bilan sanoat chiqindilari, plastiklar va kimyoviy moddalar butun dunyoga tarqalib, suv, havo va tuproqning ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Bu esa inson salomatligiga, shu jumladan oziq-ovqat zanjiriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro savdo va transportning o‘sishi, ayniqsa, avtomobillar va aviatsiya orqali, karbon dioksidning havoga chiqarilishini oshiradi. Bu nafaqat iqlim o‘zgarishlariga, balki havoning ifloslanishiga ham olib keladi.

Globallashuv natijasida odamlar ko‘proq shaharlar va yirik urbanizatsiyalashgan hududlarda yashashni boshlamoqda. Bu esa tabiiy hududlarning qisqarishiga, atrof-muhitning degradatsiyasiga va resurslarga bo‘lgan talabning ortishiga olib keladi. 2021-yilga kelib, dunyo aholisining 56,2% i shaharlarda yashamoqda. 2050-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 68,4%ga yetishi prognoz qilinmoqda. Natijada, globallashuv atrof-muhitga ta’sir qiluvchi ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi. Bu jarayonni tartibga solish va barqaror rivojlanishning amalga oshirilishi uchun xalqaro hamkorlik va aniq ekologik siyosatni talab etiladi.

Demak, globallashuv-murakkab va ziddiyatli jrayon hisoblanadi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari yetarlicha mavjudligi barchaga ma’lum.Globallashuvdan maksimal darajada darajada foyda olish va salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun

davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati birgalikda bir tan-u jon bo‘lib harakat qilishimiz darkor.Shuningdek, globallashuv- xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog‘langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida qaraladigan, jahon iqtisodiyoti jarayonlarining o‘ziga xos xususiyati bundan tashqari, bu jarayon bizning borlig‘imiz, bu borliqni o‘rganish va uni tadbiq etish, ziddiyatlarni tahlil qilish va insoniyat uchun ta’sirini o‘rganib uni samarali yo‘lda foydalanish demakdir. Shu asnoda, biz turli xil chora-tadbirlarni qo‘llashimiz kerak. Misol uchun, ijtimoiy adolatni ta’minlash, ishsizlikka qarshi kurashish, madaniy xilma-xillikni saqlash, ekologik muammolarni hal qilish to‘g‘risidagi muammolar eng dolzarb masalalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulrich Beck “Risk Society Towards A. New Modernity” 1992-yil. 53-b.
2. Anthony Giddens “Runaway World” 1999-yil. 106-b.
3. Arjun Appadurai “Modernity at large” 1996-yil. 167-b.
4. Thomas. L.Friedman “The World is flat” 2005-yil. 52-b.
5. Giddens “Runaway World” 1999-yil. 90-b.